
KITOB - FARZANDLARIMIZ QALBIGA YO'L TOPSIN!

Qo'shtepa tumanida "Oilamiz bilan kitob o'qiyamiz!" aksiyasi bugun ham davom etmoqda. Arzonlashtirilgan narxlardagi kitoblar orqali ko'chma do'konlar ertalabdan tumanimizdagi bir nechta maktablarga yetib keldi.



33-umumiy o'rta ta'lim maktabida tashkil etilgan ushbu aksiyada tuman hokimi, 1-sektor rahbari I.Novikov ham ishtirok etib, "Farg'ona kitob olami" MCHJ tomonidan arzonlashtirilgan narxlarda o'quvchilarga yetkazib berilayotgan kitob savdo yarmarkalari faoliyati bilan tanishdi. Kitobxon o'quvchilar bilan suhbatlashdi.



Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Qo'shtepa tuman bo'linmasi, Xalq ta'limi bo'limi, tuman Axborot kutubxona markazi va boshqa tashkilotlar hamkorligida tashkil etilgan ushbu aksiya davomida ota-onalar, mahalla faollari, uyushmagan yoshlar, maktab pedagog xodimlari hamda o'quvchi yoshlar faol ishtirok etdilar.

Eng quvonarlisi shundaki, yarmarkaga tashrif buyurgan ota-onalar farzandlari bilan birgalikda savdo rastalaridagi kitoblar bilan tanishdilar va barobar tanlagan kitoblarini xarid qildilar.



O'qituvchilar, ota-onalar va homiylar tomonidan maktabning kutubxonasiga ham kitoblar xarid qilindi. Mana shunday homiylardan biri "G'anijon ota" jome masjidining imom noibi Dilshodjon Qoraboyev maktab kutubxonasiga yarmarkadan kitob harid qilib topshirdi. Shuningdek, maktabdagi kam ta'minlangan oila farzandlariga ham ularning xohshiga ko'ra o'zlari yoqtirgan badiiy kitoblarni olib berdi.



Ha, kitob - bilim bulog'i, insonning ma'anaviy uyg'onishida kitob muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi tadbirdan shuni xulosa qildimki, farzandlarimiz qalbidagi kitobga nisbatan mehr-muhabbatni yanada kuchaytirishimiz kerak ekan.

2021-01-15 16:04:03